

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakul'teti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

III bosqich "A" guruh talabasi

Muhammadiev Ahadjonning tayyorlagan

KURS ISHI

Mavzu: A. Navoiyning "Arba'in" asari badiyyati.

Bajardi: Muhammadiev A

Tekshirdi: S. Qurbonov

Andijon-2016

Reja:

1. Alisher Navoiy ijodida diniy ta'limot ifodasi.
2. "Arba'in" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. "Nazm ul-javohir" asarida falsafiy qarashlar ifodasi.
4. "Arba'in"da sahih hadislar tarjima va talqini.

“Xamsa” dostonlarining har biri muayyan diniy muqaddima bilan boshlanib, bu Allohga hamd va munojot, Rasulullohga, (s.a.v) na’tni qamrab oladi. Shuningdek, “Lison ut-tayr” dostoni ham xudda mana shu an’ana bilan boshlangan.

Bunga musulmon Sharqi adabiyotidagi an’ana, deb qaralsa-da, aslida mazkur kirish so’zlari shoirning e’tiqodi, Allohga bo’lgan muhabbati, hayot haqidagi qarashlarini aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga molik. Hazrat Navoiyning Allohga, Payg’ambarimizga, (s.a.v), bag’ishlangan hamd va na’t ruhidagi asarlarini tahlil qilganimizda ularda avliyo shoirning ulug’vor olami, bukilmas irodasi, mustahkam iymoni namoyon bo’lishini ko’rdik.

Xususan, “Xamsa” dostonlaridagi munojotlarda shoir o’zining behad gunohkorligini, ojizligini, Alloh taoloning rahmati va mag’firatiga muhtoj ekanligini, Haqning lutfidan hech qachon umid uzmasligini samimiy, chinakam so’zlar bilan bayon qiladi. Agar “Xamsa” tarkibidagi beshta doston va “Lison ut-tayr”ning muqaddimasidagi munojotlarning yozilgan davriga e’tibor qaratilsa, ularning deyarli turli davrlarda yaratilganiga guvoh bo’lamiz.

Alisher Navoiyning taxminan 1460–1470 yillarda tuzilgan birinchi rasmiy devoni “Badoe’ ul-bidoya”ning nasriy so’zboshisida mukammal devon tuzish shartlari bayon qilinib, har qanday devon Allohga hamd va Rasulullohga, (s.a.v) na’t mazmunidagi g’azallar bilan boshlanishi zarurligini birinchi talab sifatida keltiriladi va devondagi dastlabki besh g’azal aynan Alloh hamdiga bag’ishlanadi, keyingi uch g’azalda Rasuli akramga, (s.a.v) bo’lgan muhabbat izhor etiladi va eng asosiysi, ularda munojot ruhi yaqqol sezilib turadi.

Hazrat Navoiyning 24–25 yoshlar oralig’ida ustoz va do’sti Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan masnaviy shaklidagi maktubining dastlabki 11 bayti hamd va munojotni, keyingi 10 bayti Sarvari Koinotga, (alayhissalom,) atab bitilgan.

Bu shuni bildiradiki, Alisher Navoiy hazratlari yuksak e’tiqodli inson bo’lib tarbiya topgan, hech qachon Allohning zikrini unutmagan, Haqni sevgan

musulmon o'z Robbisiga qanday iltijo bilan o'tinsa, xuddi shunday yuksak maqomda o'z Parvardigoriga tobelik va qullik izhor etgan. Umrining turli fasllarida, turli yillarda yozilgan Alisher Navoiyning munojot asarlari u kishining muayyan yosh chegarasida emas, balki umrbod mana shunday ilohiy muhabbat shavqidan yonib yashaganligini bildiradi.

Islom aqidasi ko'ra, banda o'zining chinakam holatini anglagan sayin Allohning ulug'ligini, marhamati va rahmati cheksizligini his etadi hamda o'zining g'arib, gunohkorligini chin dildan e'tirof qilib, tavba yo'lida bardavom bo'ladi. Biz Alisher Navoiy munojotlarini xuddi shunday tushunishimiz kerak.

“Xamsa”dagi munojotlar shoirning 40–44 yoshlari oralig'ida bitilgan bo'lsa, “Lison ut-tayr” va “Munojot” asari 59–60 yoshlari oralig'ida yozilgan. Agar bu ikkala davrdagi munojotlarni qiyoslasak, ularning har birida Allohga bo'lgan chinakam tobelikni, cheksiz muhabbatni ko'ramiz. Agar “Xamsa”dagi munojotlar mazmun jihatdan o'zaro yaqin bo'lsa, “Lison ut-tayr”ning kirish qismidagi munojot va biz o'rgangan “Munojot” asari mohiyatan o'zaro mos kelishiga guvoh bo'lamiz:

“Lison ut-tayr”da:

Jonima isyon mayidin mastlig',
Ko'ngluma fisq ahlig'a pobastlig'.
Yuz havo boshimg'a solib nafs shum,
Xayli shayton aylabon haryon hujum.

“Munojot”da:

Ilohi, lahv u havo mayidin mastmen, ujb u riyo jomidin mayparastmen, bu dastovizlar bila shaytong'a hamdastmen.

“Lison ut-tayr”da:

Bir taaddi peshalikni xo'b deb,
O'zni oshiq deb, oni mahbub deb.
Har sitamkim tundxo'edin yetib,
Ul chu yetg'och oh urub, o'zdin ketib.
Otashin la'lidin o't jonim aro,
Ro'zg'orim zulfu xolidin qaro.

“Munojot”da:

Ilohi, pariuzorlarg'a meni devona qilding va sham'i ruxsorlarg'a ko'nglumni parvona qilding, bu sabablardin rasvolig' bila olamg'a afsona qilding.

“Lison ut-tayr”da:

Qilmadim umrumda bir rak'at namoz,
Sar-basir mahzi niyoz, ey beniyoz...
...Tutmadim oting qilib farzonaliq,
Sabha eldin osmayin yuz donaliq.
Bir amal hargiz riyosiz qilmadim,
Zarqsiz hargiz o'zumni bilmadim.

“Munojot”da:

“Ilohi, namozeki, el bo'lmag'uncha qilmag'aymen, xudnamolig'dur va ul namoz uchun xirqavu rido xudoroylig'dur”.

“Lison ut-tayr”da:

Bas xijolatdin manga yo'qtur hayot,
Ne uchunkim o'lturur hardam uyot.

...Gar manga bu dard bedarmon erur,

Lek darmoni sanga oson erur.

Dardima darmon inoyat aylagil,

Tavbai komil hidoyat aylagil,

Adlu ehsoningg'a xos etgil meni,

Nafsi zolimdin xalos etgil meni...

“Munojot”da:

Ilohi, o'zluk yomonlig'idin o'zlugum bila o'ta olmaydurmen va yaxshilarning etagin yomonlig'im uyotidin tuta olmaydurmen...

...Ilohi, umidimni karamingdin ma'dum qilma va rahmatingni xaloyiqqa om qilg'onda meni ham mahrum qilma...

... Ilohi, men tavba qildim degandin ne sud, Sen tavba bergilki, ham Tavvob Senu ham Ma'bud.

Bu shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy umrining so'nggida o'zini Allohga yana ham yaqinroq his etgan, bu davrda uning o'z Robbisiga bo'lgan ehtiyoji, intilishi yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan va bu buyuk mutafakkirning qaynoq misralarida aks etgan.

Islom dini aqiydasiga ko'ra, tavba insonni poklaydi, gunohlari Allohning huzurida o'chirilishiga, afv etilishiga sabab bo'ladi, yuksak maqomlarga ko'taradi. Alisher Navoiyning 60 yosh bo'sag'asida, o'z mamlakatida eng yuksak maqom tutgan paytida bunday xokisor va samimiy, dil tubidan vulqon yanglig' otilib chiqqan iltijolari u zotning chinakam siyrati qanchalik ulug'vor bo'lganligini bildirib turadi.

Umuman olganda, turkiy millatning quyoshi bo'lgan hazrat mir Nizomiddin Alisher Navoiy hazratlarining har bir asarini o'rganish, chuqur tadqiq etish,

tushunish, xalqimiz, ulg'ayib kelayotgan yoshlarimiz orasida targ'ib qilish ma'naviy yuksalish, ruhiy poklanish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan Mir Alisher Navoiy faoliyatiga nazar tashlasak, uning «Arbain» va «Nazm ul-javohir»lari ham hadislarining she'riy sharhi jarayonida maydonga kelgan mustaqil badiiy asarlar ekanligi anglashiladi.

Yuqoridagi fikrlar shundan guvohlik beradiki, musulmon olamidagi ilmiy va badiiy tafakkur ma'lum ma'noda islom yaratgan ilmiy-badiiy yodgorliklar va falsafiy qarashlar negizida rivojlanib, ularni badiiylik qonuniyatlari va zamon talablari asosida yangi-yangi bosqichga ko'targan yoki, ikki xil qilib aytganda, g'oyaviy jihatdan umumiy bo'lgan nodir badiiy asarlarni maydonga keltirgan. Shundan-da musulmon olamidagi badiiy yodgorliklarning o'zaro o'xshashligi va, shuning bilan bir qatorda, o'xshamasligi an'anasi, ya'ni nazirai benazir yo'nalishi ko'zga tashlanadi. Yana bir tomoni shundaki, musulmon olamiga mansub muqaddas kitob Qur'on ham, nodir hadislar va fiqh ilmi yodgorliklari ham faqat islom dinini o'z e'tiqodi deb bilganlar manfaatlarinigina ko'zlab qolmay, balki ahli kitob Tavrot, Zabur, Injil va Qur'ondagi qonun-qoida va falsafiy aqidalarga ishonuvchilarning hamda umuman inson zotining bani Odam manfaatlarini ko'zlaganliklari bilan umumbashariy va baynalmilal ahamiyatga molikdir. Shularni hisobga olganda, madaniyatimiz tarixini keng ko'lamda o'rganish zaruriyati o'z-o'zidan ravshan bo'lib qoladi. Natijada Nizomiy va Sa'diy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylarning ma'naviy-badiiy olami sirlarini yaxshiroq anglash, ularni to'g'ri talqin qilish, tushuntirish imkoniyatlari kengayadi.

Shundan kelib chiqqan holda tasavvuf va uning turli ko'rinishlari, jumladan, naqshbandiya tariqatiga ham tegishincha munosabatda bo'lmoq lozim. Chunki bu tariqat, xususan, XV asrdagi ilmiy, madaniy-adabiy hayot hamda mafkura sohasida katta mavqega ega edi. Shuning uchun uning mohiyati va shu tariqatning ko'zga ko'ringan namoyandalari hayoti, faoliyati, asarlarini chuqur o'rganmasdan turib, mazkur davrning xususiyatlarini har tomonlama tasavvur etish mushkul. Shu bois

mazkur risolada naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan arboblardan biri bo'lmish xoja Ubaydulloh Xoja Ahrori Vali haqida mulohaza yuritish, uning hayoti, faoliyati, asarlari, mashhur ixlosmandlari va ahroriya xonadonining keyingi davrlardagi vakillari to'g'risida bahs yuritish maqsadga muvofiq deb bilindi. Chunki bunday siymolarning xizmatlari va mavqeini aniqlamaslik uni unutish bilan tengdir. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy esa shunday yozadi:

Kishilik budurkim unutsang ani.

Chu tarking qilur tark qilsang ani.

Mir Alisher Navoiy hazratlari avlodlarni shunday ogohlantirmoqdalarki, agar siz kishilik olamining udumi bo'lmish odamiyat va odamgarchilikni, tarixiy shaxs va hodisalarni unutsangiz, unda kelajak avlod ham sizni unutadi.

Alisher Navoiyning "Arba'in", "Siroj ul-muslimin", "Munojot" asarlari diniy-islomiy ruhdagi asarlardir.

Sharq adabiyotida "arba'in" an'anasi mavjud bo'lib, xalq orasida mashhur, eng sahih hadislardan 40 tasi saralab olinib, u hadislardan har birining mazmuni bir ruboiyda talqin qilingan. Abdurahmon Jomiyning "Chihil hadis" asarini Navoiy turkiyga tarjima qiladi. Shoirning niyati, asar muqaddimasida ta'kidlangandek, "forsiydonlar idrok aylagan" qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish edi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu naf'din atrok.

Istadimki, bu xalq ham bori

Bo'lmag'aylar bu naf'din oriy.

Hadislarni she'rga solishda barcha shoirlar ularning oson tushunilishini, yodda saqlanishini ham nazarda tutganlar.

“Siroj ul-muslimin” asari she'riy yo'l (masnaviy) da yaratilgan bo'lib, islom dinining arkonlari- namoz, zakot, ro'za, haj haqidagi fikrlar bayon etilgan. Asar musulmonlar uchun ma'lum ma'noda dastur-qo'llanma vazifasini bajargan.

Navoiy hayotining so'ngida o'z asarlaridagi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va dunyoviy muddaolar, shaxsiyatidagi davr talablari, mafkurasiga munosabat haqida ko'p fikr yuritadi. Botiniy hayajonlari, armon-o'kinchlari birlashib, Olloh nazdida tavbalar qilish ehtiyojini yaratgan. “Munojot” ana shunday iltijolar majmu'idan iborat. “Munojot” tili- teran tafakkur tili, his-tuyg'ularga to'la ruhiy holat tili. Mohiyatan esa, ma'naviy kamolot, imon ustuvorligi, ezguliklar sari intilishga da'vat etuvchi asar bo'lib, unda bu yo'lda to'siq bo'luvchi jamiki illatlarga qarshi turish ham anglatiladi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy qalamiga mansub she'riyatning barchasi “Xazoyin ul-maoni” tarkibiga kiritilmagan. Ularning ayrimlari mustaqil asarlar sifatida taqdim etilgan. Ana shundaylardan “Arba'in”, “Nazm ul-javohir”, “Siroj ul-muslimin”larni misol qilib keltirish va ular to'g'risida qisqacha to'xtalish ma'qul ko'rindi. Chunki bu har uchchala asar ham kam o'rganilgan va, hattoki, “Siroj ul-muslimin” faqat Respublikamiz istiqbolga erishgach, 1991-yilda birinchi marta nashr etildi. Tilga olganimiz asarlar islomiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, ular inson ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

“Arba'in” yoki “Arba'in hadis”. “Qirq hadis” deb atalgan mazkur asarning yozilish tarixi to'g'risida Alisher Navoiyning o'zi asarning muqaddimasi hamda ustози Abdurahmon Jomiy haqidagi “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida shunday hikoya qiladi:

“Ul vaqtdakim (ya'ni 886-hijriy – 1481-melodiy yilda – B.V.) alar (ya'ni Abdurahmon Jomiy – B.V.) “Arba'in hadis”ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar

va ma'hud odat bila borchashobdin burunroq faqirg'a iltifot qilib, musavvadasin berdilar, chun mutolaasig'a mashg'ul bo'ldum..., hamul "Arba'in" g'a turkicha til bila tarjima orzusi ko'ngulga tushti. Alardin ruxsat sharafiga musharraf bo'lg'ondin so'ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkiga kirdi"¹ Demak, Alisher Navoiyning "Arba'in"i 886-hijriy – 1481-melodiy yilda yozilgan bo'lib, unda Rasululloh Muhammad (s.a.v.)ning qirqta saheh hadislari she'riy tarzda-to'rt misra'dan iborat qit'a shaklida sharh qilingan.

Hadislarni sharhlashdan kuzatilgan asosiy maqsadni Alisher Navoiy "Arba'in" uchun masnaviy shaklida yozilgan kirish qismida shunday bayon etgan:

Ul Rasuleki kalomi faseh,

Elga yetkurdi ham hadisi saheh.

To ulus jahldin xalos bo'lub,

Ilm xilvatgahiga xos bo'lib

Chun tog'din najot topqaylar,

Ujmoq ichra hayot topqaylar.

Demak, asar xalqni jaholatdan asrash, uning ilimli va ma'rifatli bo'lishini istash maqsadida yozilgan. Darhaqiqat asarda pand-nasihat mavzusidagi qirqta hadis tanlanib, ular nihoyatda katta mahorat bilan o'zbek tilida talqin qilingan. Bu ishning qanday darajada amalga oshirilganini aniq tasavvur ettirish maqsadida ulardan ayrimlarini nazardan o'tkazish ma'qul.

1. "Hadisning asli: al-ilmu lo yubxalu minhu", ya'ni: ilmni to'hfa qilishda (o'rgatishda) baxillik qilma.

Abdurahmon Jomiyning sharhi:

1. MAT, 15-tom, 55-bet.

Ey, garonmoya mardi donishmand,

Ki turo ilmi din buvad ma'lum.

Musta'idro az on mashav mone',

Mustahiqro az on makun mahrum.

Alisher Navoiyning tarjima-sharhi:

Ey xiradmand olimeki senga,

Ilmi din ro'ziy ayladi sone'.

Kishi o'rgansa, qilmag'il mahrum,

Yoki naf' olsa, bo'lmag'il mone'.

Keltirilgan misolda arab, fors va turkiy tillar qatnashmoqda. Arab tilidagi asl matn nihoyatda ixcham bo'lib, to'rt so'zdan tashkil topgan. Jomiy va Navoiy misralari esa asliyatning so'zma-so'z tarjimasi bo'lmay, balki badiiyat qonuniyati asosida amalga oshirilgan to'rt misralik qit'a talablariga muvofiq sharhlardir, ularda qofiya bor, vazn bor.

Jomiy va Navoiy sharh-qit'alarining birinchi baytida olim-donishmandga murojaat qilish bor. Bu murojaat asliyatda yo'q, demak ular sharhlovchilarning ilovasi. Qit'alarning ikkinchi baytida esa hadisning mazmuni qamrab olinib, ular asosiy maqsadni ifodalovchi yakuniy baytga aylanganlar. Shunday qilib, bu sharhlar hadis ruhidagi axloqiy mavzudan bahs yurituvchi mustaqil qit'alardir.

2. Hadisning asli: "xayr un-nasi man yanfa' un-nasa," ya'ni yaxshi odam ulki, odamlarga nafi tegadi yoki odamlarga foydasi tegadigan kishi yaxshi odamdir.

Abdurahmon Jomiy sharhi:

Ey, ki pursi ki behtarin kas kist?

Go'yam az qavli behtarin kason:

Behtarin kas kase buvad, ki zi xalq

Besh boshad ba xalq nafʼ rason.

Alisher Navoiyning tarjima-sharhi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kindur?

Eshitib, ayla shubha rafʼ andin.

Yaxshiraq bil oni ulus orakim

Yetsa ko'proq ulusqa nafʼ andin.

Umumiy yo'nalish, ya'ni tarjima-sharhlik nuqtai nazaridan bu misol ham avvalgisiga o'xshash bo'lsa-da, ammo buning o'ziga xos tomonlari ham bor. Bu o'ziga xoslikning birinchisi shundan iboratki, arab tilidagi matnda sajʼ sanʼati (nasi-nasa) ko'zga tashlanadi. Hadis o'z ruhi bilan savol-javob uslubini esladi. Ana shu uslub Jomiy va Navoiy sharhlarida ham mavjud. Shuning uchun har ikki muallif qit'alarining birinchi bayti shoirlarning savol beruvchi shaxsga murojaati shaklini olgan bo'lsa, ikkinchi baytlar unga javob tarzida bo'lib, hadisning mazmunini o'zlarida mujassam etganlar. Ikkinchidan, hadisning birinchi qismidagi “xayr un-nasi” – “yaxshi odam” iborasi Jomiyda uch marta “behtarin kas” tarzida takrorlangan bo'lsa, Navoiyda “yaxshiroq kim” iborasi ikki marta ishlatilib, asosiy urg'u shunga qaratiladi hamda oxirda unga javob beriladi. Shunday qilib, Jomiy ham, Navoiy ham bu xulosani fikrning yuqori nuqtasi darajasiga ko'taradilar va o'quvchini unga zina-bazina olib chiqadilar.

Sunday qilib, Alisher Navoiyning “Arba'in hadis” yoki “Arba'in” deb ataluvchi asari hadislar misolida muallifning hayot va insoniylikka doir mulohaza va mushohadalarini yaqqol gavdalantiradi.

“Nazm ul-javohir”. “Tizilgan gavharlar” ma’nosini anglatuvchi bu asar 890-hijriy 1485-melodiy yilda yozilgan bo’lib, u Sulton Husayn Boyqaroga bag’ishlangan. Asar nasriy debocha bilan boshlanib, 255 ruboiydan iborat.

Alisher Navoiyning uqtirishicha, asarning yozilishiga sabab bo’lgan manba’ hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” nomli hikmatli so’zlari to’plamidir: “Parishon xotirg’a... bu orzu... erdikim, deb yozadi Alisher Navoiy, turkiy tili bila men ham ul laolini orosta qilg’aymen... to andin turk ulusig’a ham hazzi shofi va bahrai vofi muyassar bo’lg’ay”². Alisher Navoiy ana shu orzuni amalga oshirib, “Nasr ul-laoli”dagi hikmatli so’zlarni o’zbek tiliga ruboiy tarzida o’giradi. Asarda avval hazrat Alining arab tilidagi hikmatli so’zi keltiriladi-da, so’ng uning Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirilgan sharhi-ruboiysi beriladi. Ruboiylarda adolat va imonlilik, saxiylik va ilmlilik, do’stlik va muruvvat, ota-ona hurmati kabi masalalar yoritilgan. Fikrimizning tasdiqi uchun bir necha ruboiyni misol tarzida keltirish mumkin:

1. Qardoshing emas ulki qo'yub bosh sanga,
Davlat chog'i qilg'ay o'zni qo'ldosh sanga.
Kim qildi qatig'lig'da vafo fosh sanga,
Ul bo'ldi haqiqat ichra qardosh sanga.
2. Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
Qulluk anoga ham ulcha imkon qilmoq.
Zuhri abad istasang farovon qilmoq
Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq.
3. Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay.
Har kimki, atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.
4. Kimni tilasang bilay maqolin angla,
Aslin desang anglayin, fiolin angla.

2. MAT, 15-tom, 128-bet

Kirdorig'a boqib, asl holin angla,
Asliga dalil aning xisolin angla.
Xub el bila so'hbat tutubon xub o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.
Shirin so'zila xalqqa marg'ub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o'lg'il.

Demak, Alisher Navoiy islomiy tamaddun manba'larida insonni komil bo'lishlikka da'vat etuvchi barcha ezgu fikrlarni turli shaklda xalqqa yetkazishga hormay-tolmay ijodiy mehnat qilgan.

“Siroj ul-muslimin”. “Musulmonlig' charog'i” deb ataluvchi bu asar masnaviy tarzida yozilgan. Alisher Navoiy asarning kirish va xotima qismlarida uning yozilishi sabablari haqida so'z yuritgan. Undan ma'lum bo'lishicha, asarni yozilishga marhum Xoja Ubaydulloh Xoja Ahrori Valining so'z asnosida Alisher Navoiyni eslab, u juda ko'p asarlar yozdi, agar islomiy mavzularni ham nazm qilsa edi, munosib ish bo'lardi (“Kim ul ko'p nazm derga bo'ldi rog'ib, Bu yanglig' nazm ham erdi munosib”) degan so'zlari ham bois bo'lgan ekan. Albatta, Alisher Navoiyning bunday e'tiroflari bejiz emas, chunki u Xoja Ahrori Vali murshidi bo'lgan naqshbandiya sulukining irodatmandi bo'lib, murshidning istaklarini amalga oshirishi kerak edi. Ikkinchi tomondan esa shariat ahkomlarini turkiy tilda sodda va tushinarli tarzda bayon etish zarurati ham bu asarning yozilishiga sabab bo'lgan. Bu haqda Alisher Navoiy quyidagicha yozgan:

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,

Ki bo'lg'ay dini islom uyi ma'mur.

Nekim din ahlig'a bo'lg'ay zarurat,

Bari tutqay ani bilganga surat.

Ham etqaymen burun sharhi aqoid,

Ki islom ahlig'a bergay favoid.

Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,

Nekim oriz bo'lur yaxshi, yamon ham.

Ki din ahlining o'lg'ay dilpaziri,

Musulmonlig' ishida noguziri.

Bayon qilg'aymen andoq ravshanu pok

Ki idrok etgay oni xayli atrok.

Biz bu parchani bejiz keltirmadik. Chunki unda Alisher Navoiyning mazkur asarni yozishdan kuzatqan maqsadi quyma tarzda bayon etilgan. Darhaqiqat, asarni o'qigan har bir kitobxon shariat qonun-qoidalari, ahkomi, besh rukni to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'ladi, ya'ni Alisher Navoiyning uqtirishicha:

Chu ravshan aylar islom ahli zotin,

“Siroj ul-muslimin” qo'ymishmen otin.

Umidim shulki, har kim o'qug'ay,

Muning nuri bila ko'ngli yorug'ay.

Bu asar Respublikamiz istiqlolga erishgani munosabati bilan olima Suyima G'ani qizi tomonidan nashrga tayyorlanib, kirish so'z bilan ta'minlandi va 1991-yilda o'quvchilarga taqdim etildi.

Davlatshoh Samarqandiy Alisher Navoiyni “Mir Nizomiddin”, ya'ni “dinning nizomi qonuni” deb bejiz ulug'lamagan. Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, “Xamsa” dostonlarining muqaddimalarida Allohga hamd, Payg'ambarga na't, munojot va Rasululloh (s.a.v) madhining mavjudligiyoq

bu fikrni tasdiqlaydi. Biz quyida ko'rib chiqadigan asarlarda Alisher Navoiy shariat va tasavvuf ilmining chuqur bilimdoni, nazariyotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

“Arba'in” (“Qirq hadis”) hadislarining she'riy tarjimasi bo'lib, an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi. Asar muqaddimasi “Sababi ta'lifi manzuma”da Navoiy ustози Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda “Arba'in” yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu naf' din atrok.

Istadimki, bu xalq ham bori,

Bo'lmag' aylar bu naf' din oriy.

Men demakni chu muddao aylab,

Ul ijozat berib duo aylab.

Shuningdek, muqaddimada Navoiy Jomiy o'z asarini hijriy 886 (milodiy 1486) yilda yaratganligini, u ham tez orada ustozidan ijozat olib, asarni bir-ikki kun ichida tamomlaganini aytadi:

Bir-iki kunki ehtimom ettim,

Ko'z tutardin burun tamom ettim.

Ushbu ma'lumotdan Alisher Navoiy o'z asarini Jomiy bilan bir davrda yaratgan degan xulosaga kelish mumkin. Shoir Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she'riy usulda taqdim etadi.

“Arba’in”ning asosiy qismi “Sizlardan hech biringiz o’ziga ravo ko’rgan narsasini birodariga ravo ko’rmaguncha, chin mo’min bo’lolmaydi” degan mashhur hadisning navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo’min ermastur, ulki iymondin

Ro’zgorida yuz safo ko’rgay.

Tokki qardoshiga ravo ko’rmas

Har nekim o’ziga ravo ko’rgay.

Tanlangan hadislarining deyarli barchasi komil inson axloqiga oid qarashlarni o’zida aks ettirganini ko’rishimiz mumkin. Bu hadislarida insonlar yaxshilik qilishga chorlanadi, yomon illatlardan qaytariladi, umuman olganda, ular insonning hayot va jamiyatdagi vazifasini anglatadi.

Masalan, “Insonlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi tegadiganidir” degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilda shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?

Eshitib, ayla shubha raf’ andin.

Yaxshiroq bil ani ulus arokim,

Etsa ko’prak ulusqa naf’ andin.

Ko’rib o’tganimizdek, ushbu sharh orqali insonning ulusga jamiyatga xizmat qilishi ulug’lanyapti. Mashhur “Kurashda g’olib chiqqan pahlavon emas, balki g’azabi kelganda o’zini yenga olgan odam pahlavondir” hadisini shoir shunday talqin qiladi:

Emas ul pahlavonki o’z qadrin

Bosh uza eltibon nigun qilg'ay.

Pahlavon oni bilki yetsa g'azab

Nafsi ammorani zabun qilg'ay.

Mazkur hadis insonni o'z nafsi g'azabi ustidan hokimlik qilishga chaqiradi. Alisher Navoiy buni tarjima qilish orqali kishi jahлга qul bo'lib qolishdan saqlanishi kerakligini eslatyapti.

Umuman olganda, “Arba'in” asari insonning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu haqda shoir asarning xotima qismida aytib o'tadi:

Erur ul arba'inning avvali hol,

Ayla bu “Arba'in” bila a'mol.

Asarning umumiy hajmi 108 baytdir. E'tiborli jihati, kirish (hamd va na't) va yakuniy qismlar bir xil 5 baytdan iborat.

Asosiy qismda keltirilgan she'rlar shakl jihatidan qit'a singari bo'lib, bunda faqat juft misralar qofiyalangan va toq misralar ochiq qoldirilgan:

Tengridin rahm agar tama' qilsang,

Avval o'lmoq keraksen elga rahim.

Har kishikim ulusqa rahm etmas,

Anga rahm aylamas rahimi karim.

“Arba'in” xafif bahrining xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf yoki maqtu' (ruknlari va taqte'i: foilotun mafoilun failun yoki fa'lun V – – / V – V – / V V – yoki – –) vaznida yaratilgan.

Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asari 1481-82 yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, vaqf qildirgan yerlari, qurdirgan binolari haqida ma'lumot beruvchi asardir. "Vaqfiya" Hamd, na't va Sulton Husayn Boyqaro madhini o'zi ichiga olgan kattagina muqaddima bilan boshlanadi. Asarning asosiy qismini shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro saroyidagi davlat arbobi sifatidagi faoliyati aks etgan o'rinlar.

Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari; vaqfiya joylardagi idora usuli, xizmat uchun belgilangan lavozimlar, tayin etilgan maosh, o'rnatilgan tartib-qoidalar bayoni.

Har bir qism muayyan tarzda muqaddima va xotimani o'z ichiga oladi. Asarda Navoiyning mamlakat obodligi va el-yurt farovonligiga doir muhim fikrlari ham o'z ifodasini topgan:

To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,

To nafsu havo qasri baraftod o'lmas.

To zulmu sitam jonig'a bedod o'lmas,

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari nasriy usulda yozilgan muqaddima va Hazrati Alining ikki yuz ellik besh raqam ostida tartiblangan arab tilidagi o'gitlarining turkiy tilda ruboiy shaklida berilgan talqinidan iborat.

Asar muqaddimasi hamd va na't bilan boshlanib, unda so'z va uning qudrati, inson yaratilishi bilan bog'liq diniy-tasavvufiy qarashlar bayoni keltiriladi. Shuningdek, shoir "Nazmu-l-javohir"ning yozilishi bilan bog'liq ma'lumotlarga to'xtaladi. Har bir fikr sura va hadislardan parchalar keltirib isbotlab boriladi,

ularning ta'sirchanligini oshirish uchun to'rt misrasi ham qofiyadosh taronayi ruboiylardan foydalaniladi.

Shuningdek, muqaddimada shoir anchadan buyon Hazrat Alining o'gitlarini she'rga solmoqchi bo'lib yurganini, lekin negadir bunga jur'at qila olmayotganligini aytadi. Shoh Husayn Boyqaro "Risola" bitgach, unga javob tariqasida ushbuni yozishga qaror qiladi. Aynan "Nasr ul-laoli"ni Husayn Boyqaro risolasiga javob tarzida tarjima qilishida ham ma'no bo'lib, bu Hazrati Alining Islom olamida tutgan yuksak o'rni bilan izohlanadi. Husayn Boyqaro darajasi Hazrati Alining maqomi bilan qiyos etiladi. Bundan tashqari, o'sha davrda Hazrat Ali hikmatlari forsiy shoirlar tomonidan nazmga solingan bo'lib, Alisher Navoiy ular bilan yaxshi tanish bo'lgan va bu an'anani turkiy tilda amalga oshirishni maqsad qilgan.

Alisher Navoiy shohning saxovatini, adolatini mehr bilan ta'riflagach, Hazrat Ali o'gitlari talqinlarini ruboiy tarzida berishini ma'lum qiladi. Mazkur ruboiylarning to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lishida ramziy ma'no bor: shoh taxtining to'rt poyasi uni ko'tarib turadi, Ka'batullohni biz to'rt devori bo'lganligi uchun tasavvur eta olamiz, falakning to'rtinchi qavati quyoshning maskanidir va boshqalar:

Har birini to'rt durri shahvor degil,

To'rtunchi falakda mehr zarkor degil.

Rub'i maskunda Ka'bai osor degil,

Baytul muqaddasqa to'rt devor degil.

So'ng Hazrat Alining o'gitlari "Nasr ul-laoli" ("Sochma durlar") deb atalgan bo'lsa, bu tarjima "Nazm ul-javohir" ("Nazm javohirlari") deb nomlangani aytiladi, bu sochma durlarni bir rishtaga ipga javohir singari tizilganiga ham

ishoradir va shoir ushbu baytlarini xalq uchun manfaatli va yoqimli bo'lishini iltijo qilgan mazmundagi 3 ruboiyi taronalarini ilova qiladi.

Asarning asosiy qismi o'ziga xos tuzilishga ega. Dastavval, hazrat Alining arab tilidagi falsafiy o'g'itlari keltiriladi, so'ng esa turkiy tilda ruboiy shaklidagi talqin beriladi. Biz bu o'rinda tarjima emas, ko'proq talqin atamasini ishlatyapmiz. Chunki Alisher Navoiy to'g'ridan-to'g'ri tarjimini emas, balki badiiy jihatdan boyitilgan fikrlarni taqdim etadi.

“Nazm ul-javohir”dagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barangdir. Ularda biz hayotning mohiyati, do'stlik va sevgining ulug'vorligi, insoniylikning qadr-qimmatini to'g'risidagi nodir fikrlardan bahramand bo'lamiz. Masalan, 100-ruboiyga hazrat Alining “Do'stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi” degan o'g'itlari asos qilib olingan:

Har kimki habibing o'lsa evrul boshig'a,

Mahv o'l yuzig'a, jonni fido qil qoshig'a,

Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig'a,

Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig'a.

Ko'rib turganimizdek, Navoiy hazrati Alining fikrini talqin qilish barobarida bu fikrni to'ldirib, ta'sir quvvatini oshiruvchi yondashuvni beryapti: “Kim do'sting bo'lsa, uning boshiga aylan, ya'ni har bir xayolu o'yidan xabardor bo'l, diydori uchun, qoshiga borish uchun jon fido qil. Agar tosh ursa ham unga o'zingni bag'ishla, uning qoshiga borish muhabbatni ziyoda qilishini angla!”

Yoki 237-ruboiyda “Kishining ulug'ligi uning himmatidan bilinadi” degan fikr sharhlanadi:

Har kimsaki iqbol aning yovaridur,

Har yonki yuz ura, himmati rahbaridur,

Himmat duri faxr tojining gavharidur,

CHun himmati odam o'g'lining sarvaridur.

Umuman olganda, Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarida o'zining dunyo va hayot haqidagi falsafasini yanada aniqroq shaklda yuksak badiiy mahorat bilan namoyon qiladi. Biz bu asar orqali shoirni faylasuf-donishmand qiyofasida ko'ramiz.

Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar nuri”) asari sof diniy yo'nalishda bo'lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, hajman 197 baytdan iborat. “Siroj ul-muslimin” hamd va na't, kitob yozilishining sababi, islomga oid fiqhiy va aqidaviy masalalar sharhi va xotimani o'z ichiga oladi.

Hazrat Navoiy, avvalo, Allohga hamd va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga salot va salomlarini yo'llagach, mazkur kitob nazmining sababi bayoniga o'tadi. Dastavval sulton Husayn Boyqaroga cheksiz hurmatini izhor etib, bir voqeani bayon qiladi. Unga ko'ra, shoh majlislaridan birida bir nuktadon inson Husayn Boyqaroga: “Navoiyning she'rlari juda ajoyib, undan bahramand bo'lgan odam yana bahra olmoqni xohlaydi, lekin bundan ne foyda bor?”, degan ma'noda fikr bildiradi. Aslida shoir ko'pdan buyon fiqh va aqidaga doir asar yozishni niyat qilib yurardiyu, azbaroyi yumush ko'pligidan bunga fursat topolmayotgan edi. Samarqanddan bir ulug' insonning Hirotga tashrif buyurib, piri murshid Xoja Ahror Valiyning shoirdan diniy masalalar sharhini yorituvchi kitob yozishni so'raganini aytganidan so'ng Alisher Navoiy katta ishtiyoq bilan ishga kirishadi:

...CHu so'rdi Iso anfosi bu damni,

Ham ul dam azmig'a yo'ndum qalamni...

Alisher Navoiy “Kitob nazmining sababi” qismida avval aqida sharhini, so’ng farz, vojib, sunnatni bayon etishini, bundan ahli islomga foyda bo’lishini aytadi:

...Ham etkaymen burun sharhi aqoyid,

Ki, islom ahlig’a bergay favoyid.

Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,

Neki oriz bo’lur yaxshi, yomon ham...

Asarning asosiy qismida Alisher Navoiy o’zi aytganidek, dastavval aqoid hamda shariat hukmlari sharhiga to’xtaladi. Bunda shoir islom ahkomi ikki qism: aqida va amal (shariat)dan iborat deb yozar ekan, aqida pok bo’lmasa, amalning ahamiyati yuqori bo’lmasligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy iymon shartlari sifatida Allohning biru borligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg’ambarlarga, oxirat kuniga, qadar taqdirga ishonish kabilarni sanab o’tadi.

Keyingi qismda shoir Allohning sifatlarini bayon etadi. Unga ko’ra, mo’min inson Allohning zamon va makondan munazzah xoli ekaniga, sherigi yo’qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko’rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shart. Hazrat Navoiy, shuningdek, Allohning o’xshashi yo’q, uning qudrati har qanday jismdan xoli bo’lib, bandalar kabi ehtiyojmand emasdur degan islom aqidasiidagi fikrni uqtirar ekan, bunga isbot tariqasida “Sho’ro” surasidagi 11-oyatni keltiradi. Keyingi bobda shoir islom aqidasiidagi qabr azobi, qabrdagi savol-javob, sirot ko’prigi, tarozi, do’zax, jannat, Rasululloh (s.a.v.) shifoati, nabiyalar mo’jizalari, avliyolar karomati haq ekanini ta’kidlaydi hamda kohinni tasdiq etish kufr ekanini ham aytib o’tadi.

Islom aqidasi shartlari bayonidan so'ng Alisher Navoiy islom ahkomlarini yoritadi. Bunda shoir islom dini farzlari tahorat, g'usl, namoz, zakot, ramazon ro'zasi, haj bilan bog'liq shariat hukmlarini batafsil bayon etadi.

Asarning xotima qismida shoir o'z manzumasi insonlar uchun foydali bo'lishidan umid qilib, musulmonlar dilini ravshan etsin, deya bu kitobga "Siroj ul-muslimin" ("Musulmonlar nuri") deb nom qo'yganligini aytadi.

"Asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun, chizmasi: V — — / V — — / V — —) vaznida yozilgan.

"Munajat" Ollohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy asar bo'lib, "Hamd", "Na't" va "Munajat" deb atalgan uch qismni o'z ichiga oladi. "Hamd"da Allohning buyukligi, abadiyligi haqida so'z borsa, "Na't"da Payg'ambarimiz rasuli akram ta'riflari ketiriladi. Asarning "Munajat" qismi bevosita shoirning Allohdan najot so'rab qilgan iltijolariga bag'ishlangan. Asarning har bir jumlası Allohga murojaat, ya'ni "ilohi" so'zi bilan boshlanadi. Navoiy o'zini behad gunohkor, yaratganni pok va akram (karamli), o'zini cheksiz isyonkor va Xoliqni rahmli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiyoq san'atlarining betakror namunalari shoir his-tuyg'ulari bilan uyg'unlik kasb etganligini ko'ramiz:

Ilohi, akram ul-akramin sen va men gunohkor.

Ilohi, arham ar-rohimin sen va men tiyraro'zgor.

Ilohi, agarchi jurmu isyondin o'zga ishim yo'q, ammo sendin o'zga ham kishim yo'q...

"Munajat" asari mohiyatan Haq vasliga tashna, oriflik maqomiga erishgan oshiqning hissiyotlarini o'zida aks ettirib, janriy jihatdan nazm va nasr xususiyatlarini namoyon qiladi. Asarning o'ziga xos musiqiy ohangi, saj' usulidan mahorat bilan foydalanilganligi uning badiiy jihatdan qiymatini oshirgan, deb

aytish mumkin. Mazkur asar o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan mumtoz adabiyotimizdagi shoh asarlari sifatida o'z o'rniga egadir.

Alisher Navoiyning tirandozlik kamondan o'q otish fazilatiga bag'ishlangan "Risolayi tiyr andoxtan" risolasi har bir fikrning sof diniy dalillar hadis va rivoyatlar bilan izohlanganligi bilan alohida xarakterlanadi. Risola hajman kichik, muallif bunda kamondan o'q uzishning qanchalik savobli amal ekanini asoslashga e'tibor qaratadi.

Risolada bir nechta hadis va rivoyatlar keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- Hazrat Odam Ato alayhissalom shayton hiylasi bilan jannatdan yerga tushirilgach, Allohning amri bilan dehqonchlik qiladi bug'doy ekadi. Ammo qarg'alar ekilgan bug'doyni kavlab yeb qo'ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Xudo kamon va o'q yuboradi. Yoydan o'q otishni farishta Jabroil (alayhissalom) Odam alayhissalomga o'rgatadi. Odam Ato alayhissalom qarg'alarga otgan birinchi o'qi tegmaydi, farishta Jabroil alayhissalom tabassum qiladi, ikkinchi bor otilgan o'q nishonga tegadi, shunda Jabroil alayhissalom o'z tabassumini qo'yidagicha izohlaydi: "Agar ilk o'qing nishonga tekkanida qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo'lidan qutulmas edi".

Shundan keyin hazrat Navoiy o'q otishni Xudoning lutfi, Odam Safiy alayhissalomning mo'jizasi deb xulosa qiladi.

- Shayxlardan Shafiqi Balxiy jon berish chog'i o'q-yoy olib kelib o'q otadi. Do'stlari buni ko'rib "Shayx shifo topibdi" deb xursand bo'ldilar. Shunda shayx o'z holatini: "Umrin oxirlabdi, shunda bir yaxshi amal qilgim keldi. Biror amalni yoydan o'q uzishdan ko'ra yaxshiroq deb topmadim. Chunki o'q otishda savob ko'p", deb izohlaydi.

- "Kimki, kamonchilikni o'rganib, so'ng tark etsa, sunnatimdan yuz o'girgan hisoblanadi. U mendan emas".

- Rasululloh sallolohu alayhi va sallam kamonchilikning fazilatini ko'p aytdilar. Sahobalar kamondan o'q otishning savobini qancha miqdorda deb so'radilar. Shunda U Zot alayhissalom: "Agar kamonchilikning savobini aytsam, xalq tirikchilikni tashlab, kamondan o'q otishga berilib ketadi. Bir soat o'q otishning savobi ellik yillik toat savobi bilan tengdur. Agar kim o'q otsa, Alloh unga jannatiylar savobini beradi, nishonga tegizsa, jannat eshigini ochib, bir hurni unga ataydi".

- Bir kuni Payg'ambarimiz alayhissalom borar edilar. Sahoba Sa'd Vaqqosning o'z farzandlariga kamondan o'q otishni o'rgatayotgani ustidan chidilar. Rasululloh tomosha qilib turdilar. Shu payt bir yigit kelib, yoydan o'q uzdi. Rasuli Akram sallolohu alayhi va sallam xushnud bo'ldilar. Sahobalar buning sababini so'raganlarida: "U yigit kelganida gunohlari ko'p edi, o'q otdi gunohlari to'kildi, shuning uchun shodlandim", deb izoh berdilar.

- "Agar bir joyga masjid quriladigan bo'lsa, u yer menda masjid quradilar deb 40 yil oldin shodlanadi. Agar bir yerda o'q otiladigan bo'lsa, u yer menda o'q otiladi deb 80 yil ilgari xursand bo'ladi".

- Ali karamallohu vajhahu goho yalang bosh va yalang oyoq o'q keltirar edilar. Bir kuni Sa'd Vaqqos o'q otar edilar. Jabroil alayhissalom keldilar. Rasululloh alayhissalom men uchun o'q ot dedilar. Shunda Jabroil alayhissalom men uchun ham Sa'd o'q otsin dedi. Sa'd Vaqqos o'q otdilar. Shunda Rasululloh alayhissalom Xudoyi taolo nomi uchun o'q otgil dedilar. Sa'd o'q otdilar. Sahobalar nishonga borib, ikki o'qni topib, uchinchisini topolmadilar. Jabroil alayhissalom aytdilarki: "Yo Muhammad, u o'qni topmasinlar. Bu o'q jannatda Sa'd Vaqqos uchun yer olib turibdi". Ko'rib o'tganimizdek, Navoiy kamondan o'q otishning qanchalik savobli amallardan ekanligiga asosiy urg'uni qaratadi. Bu bejiz emas, chunki o'rta asrlarda yurt himoyasi askarlarning fidoyi va jasurligi hamda bevosita qurollarni, ayniqsa, kamonni mahorat bilan ishlata bilishi bilan ta'minlangan. Mazkur asar Vatan himoyasiga chog'langan yigitlarni o'z ishlarining

Tangri va payg'ambar tomonidan sevilgan, ma'qul ko'rilgan amal ekanligiga ishontirishga xizmat qilgan.

“Risolayi tiyr andoxtan” asari faqat diniy dalillardan iborat hamda bayon tilining boshqa ilmiy asarlaridan sodda va tushunarli ekanligi, badiiy bo'yoqdor emasligi bilan alohida xarakterlanadi. Bu ham asarning omma uchun maxsus bag'ishlangan deyishga asos beradi.

Adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Vaqfiya. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.: Fan, 1998. 14-jild. – B. 231-270.
2. Navoiy Alisher. Arba'in. Siroj ul-muslimin. Munojot. Risolai tiyr andoxtan. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.: Fan, 2000. 16-jild. B.261-308.
3. Navoiy Alisher. Vaqfiyya / Nashrga tayyorl. I.SHamsimuhamedov. T. : Fan, 1991.
4. Munojot / Nashrga tayyorl. va lug'atlar muallifi: Suyima G'ani qizi. T.: Adabiyot va san'at, 1991.
5. Arba'iyin / Nashrga tayyorl. Karimbek va Saidbek Hasan; SHarhlovchi A.Rustam. T.: Meros, 1991.
6. Arba'in: Qirq hadis sharhi / So'z boshi mualliflari va sharhlovchi: Q.Ahad, O.Mahmud. T. : Adabiyot va san'at, 1995.
7. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent.: Movarounnahr O'zbekiston NMIU, 2009.
8. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. T.: MUMTOZ SO'Z, 2011.
9. Ramazonov N. "Nasoyim"ning o'ziga xos xususiyatlariga doir / Navoiyning ijod olami (maqolalar to'plami). T.: Fan, 2001.
10. Rajabova M. "Nazm ul- javohir" tarixiga oid muhim manba / Alisher Navoiy ijodiy va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). T.: O'zbekiston, 2011.
11. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). T.: Fan, 1977.